


**PAXTAKOR TUMANI AXBOROT-KUTUBXONA  
MARKAZI AXBOROT BIBLIOGRAFIYA XIZMATI  
TOMONIDAN LEV NIKALAYEVICH  
TOLSTOYNING 196 YILLIGI MUNOSABATI  
BILAN**

**“Rus va jaxon adabiyotining buyuk  
daxosi ” *nomli*  
Eslatma**



Ushbu metodik-bibliografik qo'llanma buyuk rus yozuvchisi L.N.Tolstoy hayoti va ijodini o'rghanishga bag`ishlangan. Qo'llanma yozuvchi ijodini, boy adabiy merosini o'rghanishda kitobxonlarga yordam berish maqsadida tuzilgan.

## KIRISH

Lev Nikolaevich Tolstoy – rus va jaxon adabiyotining buyuk daxosi va sevimli adiblaridan biri. U XIX asrda eng uzoq yashagan va eng ko‘p asar yozgan rus yozuvchisidir. Xalqparvarlik ruhi – L. Tolstoy ijodining mag‘zi. Mana shu hissiyot uning maktublarida chuqur ifodasini topadi. U do‘srlariga xam esdaliklarida xam grand monde – xalq uchun yozish kerakligini qayta-qayta ta‘kidlaydi. Shu o‘rinda L. Tolstoy ijodidagi muxim bir xususiyatni aloxida ko‘rsatib o‘tish kerak. U bir tomondan, murakkab sharoitlarni ko‘rsatuvchi buyuk epik asarlar muallifi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, o‘quvchi ongiga chuqur etib boradigan oddiy xalq tilida yozilgan xikoya va ertaklarining xam ijodkoridir. Eng muximi shuki, L. Tolstoyning ommabop asarlari o‘sha oddiy kishilarni savodli qilish, katta san‘at asarlarini ham tushunishga qodir bo‘lishga karatilgan. Bu uslub rus adabiyotida eng buyuk yozuvchilar ijodiga xos, xususan Pushkin, Gorkiylarni bu safda qirish mumkin. Lev Nikolaevich Tolstoy o‘z kundaliklarining birida —Mening asarlarimni mexnatkash xalqim o‘qiy oladigan zamon kelishini orzu qilaman, – deb yozgan edi. O‘sha zamonlar keldi. Tolstoy asarlari yil sayin qayta-qayta nashr etilmoqda. Uning 90 jildlik asarlar majmuasi rus tilida va boshqa o‘nlab xalqlarning tillarida nashr etilgan va nashr etilayotgan majmualarga asos bo`ldi. O‘z asarlarida xalq hayotini, kurashini, umid-orzularini tarannum etgan buyuk yozuvchi ijodi chinakam xalq mulkiga, uning ma‘naviy xazinasiga, tarbiya dasturiga aylandi. Tolstoy asarlarining yozilganiga bir yarim asr bo`libdi-yu, xuddi bugun qog`ozga tushganday, Tolstoy biz bilan yashayotganday tuyuladi. Va xar bir odamning —Baxt nima? —Inson qanday shakllanadi?,

—Qanday qilib ma‘naviy qamolotga etadi?,

—Yashashdan maqsad nima? degan savollariga o‘z asarlari orqali javob berishdan charchamaydi. Eng assosiysi, inson o‘z axloqini takomillashtirish uchun yaratilgan, degan e’tiqodini ilgari suradi, ana shu buyuk falsafani boshqalardan qo‘ra oldinroq tushunib etdi va hayot dasturini shunga asosan qo`rdi. 2008 yil ulug` rus yozuvchisining tavalludiga 180 yil to`ldi. Dunyo xalqlarining ko`pchiligi bu sanani nishonlaydilar, chunki yozuvchi talantining olmos qirralari butun insoniyatni maftun etib kelgan, uning asarlari turli tillarga tarjima qilingan. Abdulla Avloniy, Mannon Roiq, Abdulla Qahhor, Kibriyo Qahhorova, Uyg`un, Mirzakalon Ismoiliy, Oybek, Xamid G`ulom, Asqad Muxtor, Shayxzoda va boshqalar Tolstoy asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilganlar. Yozuvchining asarlari umumbashariyligi va hamma davrlar uchun hozirjavobligi bilan barchani maftun etib kelmoqda.

Respublikamizda L.N. Tolstoyning hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan – boy adabiy merosini targ`ib qilish uchun yozuvchi hayoti va ijodiga bag`ishlangan ilmiy-amaliy konferensiyalar, adabiy-badiiy tadbirlar, davra suhbatlari, ijodkorlar bilan uchrashuvlar, savol-javob kechalari singari ommaviy tadbirlarning turli-tuman shakl va usullaridan foydalanishlari mumkin.

Lev Nikolaevich Tolstoy 1828 yil 28 avgustda (yangi hisob bo`yicha 9 sentyabr) Tula guberniyasidagi Yasnaya Polyana qishlog`ida tug`ildi va umrining ko`p qismini shu erda o`tkazdi. Tolstoy Rossiyadagi qadimiy dvoryanlar sulolasidan, graf. Peterburg Fanlar Akademiyasining muxbir a'zosi, faxriy akademik. 1844 – 1847 yillarda Qozon universitetining arab- turk va huquqshunoslik fakultetlarida o`qigan, lekin o`sha vaqt universitetda o`qitiladigan darslar saviyasidan qanoatlanmagani uchun o`qishni tamomlamay tashlab ketgan. 1851 yilda Tolstoy akasi Nikolay bilan birga Kavkazga boradi. Shu erda —Bolalik va —Osmirlik povestlarini yaratadi hamda —Kazaklar nomli mashhur povestini yoza boshlaydi. Kavkazdan qaytib kelgandan keyin Tolstoy Dunayda turklarga qarshi urushayotgan qo`shin safiga safarbar qilinadi. 1854 yil noyabrida esa Qrimga ko`chiriladi. Bu erda Tolstoy shonli Sevastopol mudofaasida qatnashadi, juda ko`plab kishilar bilan uchrashadi. Sevastopoldagi janglarda qatnashish Tolstoyma jangovar hayot va urush to`g`risida hikoyalar yozish uchun katta manba bo`ldi va uning mashhur —Sevastopol hikoyalari yuzaga keldi.

—Sevastopol hikoyalarida Tolstoy urushni shunday tasvir etadiki, ungacha urushning bunday tasviri adabiyotda sira ko`rilmagan edi. 1855 yilda Tolstoy Peterburgga borib, N.A. Nekrasovning —Sovremennik jurnalida va jurnal atrofidagi yozuvchilar bilan – I.S. Turgenev, N.G.Chernishevskiy, I.A.Goncharov va boshqalar bilan hamkorlik qiladi. Tolstoy yashagan davr Rossiya tarixining eng murakkab va eng shiddatli davri sanaladi. Yozuvchilarning yigitlik yillarida Napoleon bosqini va rus xalqining qahramonligi haqidagi xotiralar, naqllar tildan-tilga ko`chib yurar, dehqon kulbasida va poytaxt mehmonxonalarida, suhbatlarda bu mavzu chetlab o`tilmas edi. Tabiiyki, Tolstoy ham Vatan urushining qahramonlari bilan tez-tez uchrashib turadi, urush haqiqatlarini ularning o`z og`zidan tinglaydi. Rus va jahon adabiyoti xazinasidan mustahkam o`rin olgan —Urush va tinchlik (1863 – 1869) epopeyasini Tolstoy ijodiy kamolotining cho`qqisi desa bo`ladi. —Urush va tinchlikning asosiy va chinakam qahramoni – jonajon vatanini Napoleon bosqinchilaridan fidokorlik bilan himoya qilgan rus xalqidir. Tolstoy urushning xalq urushi ekanligini aytib, —ruslar xalq urushi to`qmog`ini ko`tardilar va u bilan —fransuzlarni tamom yanchdilar deb ta`kidlaydi. Ayrim sovet adabiètshunoslari garchand bu asarni Tolstoyning o`z davri muammolaridan qochishi, deb baholagan bo`lsalar-da, yozuvchi —Urush va tinchlik romani bilan o`z davrida ro`y bergan va o`zi shaxsan guvoh bo`lgan voqealarga faol munosabat bildirgan. Eng muhimi, u Napoleonning 1805 – 1807 va 1812 – 1814 yillardagi harbiy yurishlari mavzuiga murojaat etib, ko`plab qahramonlar ishtirok etgan o`pik voqealar bilan birga qahramonlarning ruhiy tasvirlari ilk bor katta mahorat bilan uyg`unlashgan tarixiy roman janrini yaratdi. Holbuki, XIX asr yurtalarida yopik asarlar davri o`tdi, degan fikrlar keng tarqalgan, 60-yillarda rus jamiyatida kuch ola boshlagan sinfiy ziddiyat va kurashlar esa —Urush va tinchlik dek epopeyaning maydonga kelishi uchun

unumli zamin bo`la olmas edi. 1812 yilda Rossianing Napoleon qo`sishlari tomonidan bosib olinishi mumkinligi bir-biri bilan kelisha olmagan turli tabaqa va sinflarni dushmanga qarshi kurash shiori ostida birlashtirdiki, Tolstoyning rus xalqi ongidagi ana shu uyqonishga murojaat etishi —Urush va tinchlik romanining yuzaga kelishi uchun hayotbaxsh zamin vazifasini o`tadi.

Lev Nikolaevich Tolstoyning 1870 yillar ijodida —Anna Karenina romani alohida mavqega ega. —Urush va tinchlikdan bu romanni yozguniga qadar bo`lgan davrda Tolstoyning rus jamiyatidagi ijtimoiy tenglik vaadolat to`g`risidagi orzuumidlari ruyobga chiqmadi. 60-yillardagi islohot yozuvchi kutgan natijani bermadi. —Anna Kareninada Tolstoyning jamiyat hayotida kechayotgan noxush jarayonlar haqidagi iztirobli o`ylari aks etdi. Lev Nikolaevich Tolstoy bu romanida o`z baxtiga ega bo`lmagan, o`z xohishi bilan hayot qurish huquqidan mahrum etilgan, go`zal qalbli Annanining unutilmas obrazini yaratdi. Adabiyotshunoslar Tolstoyning dastlab bu asarni yozishdan maqsadi hayoti fojea bilan yakunlanadigan Annani qoralash, tinch va inoq oilasi bag`rida osoyishta yashayotgan Kitini yaxshi turmush fonida tasvirlash bo`lganini, biroq hayot mantig`i asarni yozish davomida adibni o`z qarashlarini qayta kùrib chiqishga, o`zgartirishga da'vat etganini ta'kidlaydilar. —Anna Karenina ko`p jihat bilan avtobiografik, izlanish romani bo`lib, uning ustida ishlash davomida Tolstoy o`zining zamonga munosabatini o`zi uchun oydinlashtirgan (Kr. literaturnaya ensiklopediya. Tom VII. M., 1972. s. 556). Romanda Kareninlar, Oblonskiylar va Levinlardan iborat 3 oilaning bir-biri bilan chatishgan, ammo mustaqil syujet chizig`iga ega bo`lgan tarixi tasvir etilgan. Lev Nikolaevich Tolstoy rus yozuvchilaridek nasroniy diniga katta e'tiqod qo`yan, hayotda rùy berayotgan voqealarga va kishilarning hattiharakatlariga ham shu nuqtai nazardan yondashgan. Tolstoyning oila masalasiga, chunonchi, Kareninlar oilasida sodir bo`layotgan voqealarga yondashuvida ham diniy qarashlar seziladi. U jamiyat a'zolarida qanday chirkin xislatlar mavjud bùlmasin, kishilar diniy qonun-qoidalar doirasida harakat qilishlari lozim, aks holda jamiyat halokat sari boradi, degan fikrdan kelib chiqib, qahramonlar obrazini yaratadi. 1870-yillarda ruhiy iztirob iqlimida yashagan Tolstoy o`z hayot yo`lini qayta nazardan o`tkazadi va shu jarayonda ijtimoiy kelib chiqishi, tarbiyasi va hayot yo`li bilan bog`liq jamiyat qatlaming ma'naviy asoslari yolg`onga asoslangan, degan xulosaga keladi. Uning bunday qarashlari —Iqrornoma va —E'tiqodim nimada? asarlarida o`z ifodasini topadi.

Oltmishinchi-etmishinchi yillarda Tolstoy Evropa mamlakatlariga ikki marta safar qiladi. U Evropa xalqlarining hayoi bilan tanishadi. Ayniqsa, xalq maorifi ishlarini ko`zdan kechiradi. U Fransiya yoki Shveysariya maktablari ishi bilan tanishar ekan, o`z vatani – Yasnaya Polyanada dehqon bolalari uchun ochgan mактабда o`zgalar tajribasidan foydalanmoqchi bo`ladi. Biroq yozuvchi Evropadan hafsalasi pir bo`lib qaytadi. U erda maorif sohasidagi rasmiyatchilik mактаба eshiklarining mehnatkash bolalari uchun berkligi va boshka jiddiy ijtimoiy nuqsonlar buyuk

ma'rifatparvarning ko`zini ochadi va u Rossiyaga qaytib kelgach, xalq maorifini rivojlantirishga yanada qattiqroq bel bog`laydi. Lev Tolstoy 1890 yillarda dramaturgiya janrlarida ham ijod qilib, —Zulmat hokimiyati dramasi va —Ma'rifat mevalari komediyasini yozadi. Tolstoy dunyiqarashida tobora kuchayib borayotgan ziddiyatlar uning so`nggi yirik asarlaridan biri —Tirilish romani (1889 – 1899) da o`z aksini topgan. Hayoda bo`lib o`tgan oddiy voqeа – bir sud jarayoni asosida yaratilgan bu asarda Tolstoy ijtimoiy adolatsizlikka asoslangan jamiyatining ichki, ma'naviy asoslarini ochib tashlaydi. Mazkur asardagi kishilar taqdiri bilan voqealarning o`zaro chambarchas bog`liqligi masalasi —Hojimurod qissasining ham asosini tashkil etgan. Lev Tolstoy dindor yozuvchi sifatida kishilar ruhiyatidagi ziddiyatlarni tasvir etibgina qolmay, o`zi ham jamiyat va kishilar hayotidagi bunday ziddiyat va mayllardan jarohaniq shagan. Yozuvchidagi murakkab ruhiy holat uning so`nggi asarlari: —Tirik murda, —Baldan so`ng da ham aks etgan. Jamiyatga qaram bo`lmaslik, o`z qarashlari izidan ketish uchun, shuningdek, yaqin kishilari to`qigan ig`vo va fasod to`ridan qochib, 1910 yil Yasnaya Polyanadan bosh olib chiqib ketadi. Lev Nikolaevich Tolstoy jasadi o`z Vatani – Yasnaya Polyanaga qo`yildi. Buyuk yozuvchining Yasnaya Polyanadagi uyi – uy-muzey sifatida barcha kishilar uchun ochiқ. O`zbekistonda Tolstoy ijodiga qiziqish u hayot paytlarida boshlangan. Uning —Odamlar nima bilan tirik? —Xudo haqiqatni qo`rsa ham tezda ayta olmaydi maqolalari 1887 – 1902 yillarda —Turkiston viloyatining gazetida o`zbek tilida nashr etilgan.

Tolstoy haqidagi —Rossiya mamlakatining mashhur yozuvchisi deb nomlangan maqola esa 1889 yil shu gazetada taniqli ma'rifatparvar Sattorxon Abdug`afforov tarjimasida bosilgan. L.N.Tolstoyning bolalar uchun yozgan qator hikoyalari Saidrasul Aziziy (—Ustodi avval, 1902), Aliasqar Kalinin (—Muallimi soniy, 1903), Abdulla Avloniy (—Birinchi muallim, 1909; —Ikkinchi muallim, 1912) singari jadid ma'rifatparvarlarining o`quv qo`llanmalari va darsliklarida e'lon qilingan hamda usuli savtiya maktablarida o`qitilgan. Lev Nikolaevich Tolstoy nafaqat buyuk yozuvchi, balki adolatparvar va xalqparvar inson sifatida ham o`zbek jadidlarining e'tiborini o`ziga jalb etgan. Birinchi o`zbek advokati Ubaydulla Xo`jaev 1909 yilda Tolstoyma xat yozib, undan —yomonlikga qarshilik qilmay, unga bo`yin egish kerak, degan ta'limot bilan yovuzlikning qarshi kurashishini birbiriga qanday qilib qiyish mumkin? – deb so`raydi. 1909 yil 5 iyunda Tolstoyning Ubaydulla Xo`jaevga o`z qo`li bilan yo`zgan javob xati yo`zuvchi dunyoqarashidagi o`zgarishni belgilovchi hujjat sifatida qaraladi. Islom dinining taniqli arboblaridan biri Abduvohid Qoriev esa, 1910 yil Yasnaya Polyanaga maxsus borib, Tolstoy bilan bir necha marta muloqotda bo`lgan. Har bir xalq o`z tarixining salmoqli davrlari va dolzarb fasllarida buyuk olimlar va yozuvchilar, arboblar va san'atkorlarni etishtirgan: Firdavsiy va Navoiy, Gomer va Dante, Sa'diy va Navoiy, Shekspir va Balzak, Gyugo va Tagor, Pushkin va Tolstoy. Tolstoy yana o`nlab va yuzlab yozuvchilar odamzod badiiy ijodiyotining

mangu porlab turguvchi nurli chuqqilaridir. Bir hayot sahifasi Kundaliklardagi xotira Qozon universitetidagi tahsil, Sevastopoldagi harbiy jasorat, yuqori tabaqa, zodagonlar davrasidagi aysh-ishrat, maishatbozliklaru turli toifali ayollar, qartabozlik... Bularning bari Lev Tolstoy hayotida bo`lib o`tgan bosqichlar edi. Foniy dunyo ne'matlariga berilish barobarida u kelajagi haqida ham jiddiy bosh qotiradi. Uning uchun taqdir yo`lini belgilab olish muhim edi. Bu boradagi barcha o`y-fikrlari, kechinmalarini faqat shaxsiy kundaligi bilan o`rtoqlashardi. Nihoyat yoshli graf Tolstoy uylanishga ahd qiladi. Uning tanlagani, ko`ngil qo`ygani – Doktor Andrey Evstafievichning to`ng`ich qizi Sofya Bers bo`ldi va 1862 yil ularning nikoh marosimi bo`lib o`tdi. Lev Tolstoy Sofyaning qo`lini so`raydi va —Agar menga bir oy muqaddam inson sevgidan azoblangani holda rohatlanishi ham mumkin, deganlarida kulgidan o`zimni tiya olmagan bo`lardim. Rostingizni ayting, mening rafiqam bo`lishga rozimisiz? Lekin rizoligingiz chin ko`ngildan bo`lgandagina —ha deng, agar qalbingizda shubha-gumonlar uyg`onsa rad etganingiz ma'qul. Xudo haqi, o`zingizdan yaxshilab so`rang, – deydi. Tolstoyning ushbu so`zlariga Sofya rozilik beradi. Lev Nikolaevich qallig`idan hech qanday sir-asrorim bo`lmasligi lozim deb, to`ydan avval Sonyaga o`z kundaligini ko`rsatadi. Kundalikda esa barchasi – qartadagi qarzlar, kayf-safolik, birga yashashga ahd qilgan lo`li qiz, do`stlari bilan aysh qilgan qizlar, Yasnaya Polyanada o`z oqshomlarini birga o`tkazgan dehqon qizi Aksinya va, nihoyat, uch yil burun uylanishga bir bahya qolgan Valeriya Arseneva haqida bayon qilingandi. To`ydan so`ng ular Yasnaya Polyanaga jo`nab ketadilar. —Uni qattiq sevaman – bu tuyg`uga tobeman, faqat shugina tuyg`u vujudimni qamrab olgan ...- shodlanadi baxtidan masrur Sofya. – Men uni tobora teranroq bilib bormoqdaman va tuyg`ularim ham shu qadar yuksalmoqda. Har tong uni hali bu qadar kuchli sevmaganimni anglayman. Mening uchun faqat u mavjud, - Sofya Tolstaya kundaliklarida shunday yozuvlar bitilgan. O`z navbatida Tolstoy kundaligiga quyidagi so`zlarni bitadi: —Bu favqulodda baxt, uning hayot bilan yakun topishi aslo mumkin emas... Unga bo`lgan muhabbatim tobora ortib bormoqda. Uning lobarligiyu malohati oldida lolman. Yasnaya Polyanada graf o`zining mashhur —Urush va tinchlik romanini o`zishga kirishadi. Sofya esa har kuni oqshomda eri tomonidan bitilgan sahifalarni qayta-qayta qog`oz sahifalariga muhrlaydi. Zamondoshlardan birining qayd etishicha: —Har bir o`zgartirishlar, to`g`rilashlaru to`ldirishlardan so`ng u har bir sahifani etti martalab ko`chirib yozadi. Farzandlar dunyoga kelgach, oilada o`zgacha bir hayot sahifasi boshlanadi. Sofya Andreevna bolalar tarbiyasi, kiyimboshlarni butlash-u, erining asarlarini chop ettirishgacha barchasiga ulguradi, u xo`jalikni a`lo darajada boshqarar, ajoyib beka edi. Tolstoy esa osoyishta oila hayotiga moslashmagan edi. Kunlarning birida xotinining —Nima uchun uylangansiz? degan savoliga qiziqqonlik bilan: —Ahmoqligim uchun... insonlar bir-birlariga xalaqit berish uchungina nikoh rishtalari bilan bog`lanadilar. Ikki begona odam birlashib, oxirigacha begona bo`lib qoladi. Er va

xotin yondosh chiziqlar deyishadi, bekor gap, ular kesishuvchi chiziqlardir, kesishgan – zahoti turli tarafga ketadilar, –deya javob beradi. 1881 yilda Moskvaga ko`chib kelganlarida Tolstoylar oilasida 7 farzand bor edi. Lev Nikolaevich esa Rossianing eng mashhur yozuvchisiga aylanib ulgurgandi. Tolstoy tobora kundalik hayot tashvishlaridan uzoqlashib borardi. U xristian dini aqidalarini tan olmay, insoniyatni kamolotga etkazuvchi yangi din yaratilishi haqida orzu qiladi. Uning kundaligidan —... O`z baxtingni moddiy shartlar – xotin, farzand, sog`lik, boylik bilan bog`lash be'manidir, – degan so`zlarni o`qish mumkin. 1884 yilning may oyida buyuk yozuvchi oilada o`zini yolg`iz his qilayotganini kundaligiga yozadi. 17 may kuni xotini bilan og`ir suhbatdan so`ng uning homiladorligiga qaramay, u Tulaga qarab yo`l oladi. Ammo yarim yo`ldan ortiga qaytadi. Ertasi kuni Tolstoylar oilasida kenja qiz Aleksandra dunyoga keladi. Bu Tolstoyning uyni birinchi bor tark etishi edi. O`shanda u qaytib keladi, biroq avvalgi munosabatlar, baribir tiklanmaydi. Sofya Andreevnaning kundaliklarida shunday so`zlar bitilgan: —U meni sekin-asta o`ldirmoqda, o`z hayotidan siqib chiqarmoqda. Bu naqadar azob. Ba'zan bunday e'tiborsizlik, beparvolikdan umidsizlikka tushaman. O`z jonimga qasd qilish yoxud qaergadir qochib ketish, kimgadir kìngil berish istagi tuviladi. Ayol kishi timsolida Lev Nikolaevich avvalo ona siymosini ko`radi. Uning fikricha, farzandsiz oila – gunohi a'zim. 1888 yilda graf 60, uning rafiqasi 44 yoshda bo`lganida oilada so`nggi farzand dunyoga keladi. U o`g`lining tug`ilishidan xursand bo`lishiga qaramay, Tolstoy xotini oldida uzoq qolmaydi, ikki haftadan so`ng Moskvadan Yasnaya Polyanaga qarab yo`l oladi. 1910 yilning oktyabrida Lev Tolstoyning hushidan ketish hollari bot-bot takrorlanib, kasallik tez-tez huruj qiladigan bo`ldi. Oy so`ngida graf bor kuchini jamlab, yashirinchcha Yasnaya Polyanadan jo`nab ketadi. Sofya Andreevna esa, uning ortidan quyidagi mazmundagi maktubni oladi: —Sevmaganim uchun seni tark etayotganim yo`q. Seni sevaman va nihoyatda afsusdaman, biroq o`zga chora ko`rmayapman. Gap mening xohish èhud talablarimni qondirishda emas, sening oqilonha hayotiy qarashlaringdadir. Toki oramizda o`zaro mushtaraklik yo`q ekan sen bilan hayot men uchun ma'niszidir. Alvido, azizam, Sonya, Xudo senga yor bo`lsin! Yo`lda ketayotib, Tolstoy qattiq betob bo`ladi va Astapovo stansiya bekatida bir necha kun qolib ketadi. Bundan xabar topgan Sofya Andreevna grafning yoniga oshiqadi, lekin uni reining yoniga qo`yishmaydi. Jon talavasasi boshlangan so`nggi tundagina Lev Nikolaevich o`tgani xonaga kirishga izn oladi. Buyuk yozuvchining joni uzilayotgan edi. Sofya Andreevna uzoqdan eriga termulib turdi va yaqinlashib, uning peshonasidan o`pdi. So`ng tiz cho`kkan holda —Meni kechir deya shivirladi. —Graf Tolstoyning xotiniga maktublari nomli kitobi debochasida Sofya Tolstaya shunday kirish so`zi yozgan edi: — G`o`r yoshlik davrlaridanoq nozik elkalarida buyuk insonning va dahoning rafiqasi bo`lishdek yuksak nomni ko`tarishga ehtimol hamisha ham munosib bo`lmagandirman... Inson ruhining ulug`vorligi Ba'zan, Sharqda Tolstoyning asosan falsafiy qarashlari va birinchi galda, ahloqiy –

etik ta'limotining zaif tomonlari ko`proq nufuz topgan, deb hisoblaydilar. Darhaqiqat, buyuk mutafakkir boshqa dinlardagi singari, islomdan ham —ezgulik g`oyalarini qidirgan, unga ahloq haqidagi eng qadimiy ta'limotlardan biri deb qaragan. U Osiyo xalqlarining ma'naviy merosiga astoydil qiziqqan. O`zi rad qilgan o`sha zamon burjua madaniyati fonida, ezgulik vaadolat haqidagi ming yillik tushunchalarni mujassamlashtirgan ko`p asrlik Sharq donishmandligi adibni bir umr o`ziga qattiq jalg etib kelgan edi. Tolstoy unda o`zini doim qiynab kelgan ahloqiy muammolarga javob topmoqchi bo`lardi. Bu intilishlar uning ijodida shunday badiiy kuch bilan ifodalandiki, ko`p kitobxonlar ham o`sha umiddan qutula olmay, shu haqda o`ylashga va qiynalishga majbur bo`lganlar. Ma'lumki, Lev Nikolaevich Tolstoy talabalik vaqtidayoq sharq tillarini o`rgangan, keyin Sharq xalqlari og`zaki adapiyoti, eposlari bilan qiziqqan, shoir Fetga —hofizxonlikda ko`maklashgan, qadimiy Sharq klassikasining —Guliston, —Qobusnama kabi asarlarini mutolaa qilgan. Gumanistik dunyoqarashidagi ko`p jihatlarning Sharqdagi ba'zi falsafiy-axloqiy ta'limotlarga mos tushishi san'atkorda xalqlar ozodlik kurashiga chuqur xayrigohlik tug`dirdi. Lunacharskiy aytganidek, Evropadan keyin Osiyo ham unga qo`l cho`zdi. Ammo, ma'lumki, uning ma'naviy chaqiriqlari —umumiyligi mehr - shafqat targ`iboti bilan bog`liq edi. Yasnaya Polyanaga oqib borayotgan minglab maktublar orasida andijonlik bir advokatning ham xati ( 1909 yil) bor edi. U Lev Tolstoyn dan bir narsani tushuntirishni so`raydi: endilikda, katta-katta kuchlar bir-biri bilan to`qnashayotgan sharoitda qarshilik ko`rsatmaslik va umumiyligi mehr-shafqat ta'limoti nima bo`ladi, o`z kuchini saqlaydimi? Buyuk adib uzoqdagi o`zbek kitobxoniga javob yo`zadi. Ko`pchilikka uncha ma'lum bo`limgan, o`sha vaqt chekka o`lkaning bir gazetasida bosilib chiqqan bu hujjatda Tolstoyning o`z ta'limotini ta'kidlashida ilgarigi qat'iyat sezilmaydi. Uning tushuntirishicha, endi qarshilik ko`rsatmaslik va umumiyligi mehr-shafqat g`oyasi go`zal bir orzu, ideal sifatida zarur, chunki odamlar kamolotga intilishdan hech qachon to`xtamayajaklar. Maxatma Gandhi Tolstoyning yuz yilligi munosabati bilan so`zlagan nutqida shunday degan edi: —U zamonanining eng haqqoni kishisi edi. Uning tilak maqsadi hayotda haqiqat izlashdan, haqiqat sari betinim talpinish, uni hayotda, amalda ko`rishga intilishdan iborat edi... Albatta, unga o`z ideallarini hayotda ko`rish nasib qilmadi, aslida bu hech kimga ham nasib qilmaydi-ku. Ideal shunday narsaki, biz unga yaqinlashganimiz sari, u bizdan uzoqlashaveradi. Shuning uchun Tolstoyning o`z fikricha, u yuksak ideallariga erisha olmagan ekan, bu uning buyukligiga sira ham putur etkazmaydi. Ha, orzusiz, idealsiz biz ham o`z hayotimizni, oldinga qarab siljishimizni tasavvur etolmaymiz. Bu jihatdan ham Tolstoy bizga tom ma'nosi bilan zamondosh. Zamonanining barcha muhim muammolari Tolstoy ijodida mudom aks-sado topadi. Urush va tinchlik masalalari buyuk san'atkor xayollarini bir umr band etgan. U tinchlik g`oyasiga astoydil ishonar, urush yo`lini faqat xalqlar irodasi to`savvur olishiga amin edi. Eronlik bir shahzoda unga o`zining tinchlik haqidagi dostonini

yuborgani ma'lum. Muallif unda tinchlikni zo'rlik pozisiyasidan turib himoya qilish fikrini bildiradi: —Tinchlik istasang, urushga tayyor bo'l! — deydi shoir shahzoda. Urushni xalqlarning o'zi, faqat xalqlarning o'zi yo'qota oladi, deb javob beradi Tolstoy. O'zbek prozasi Tolstoyning murakkab va haqqoniy, aslan sog'lom va buyuk merosi bilan uchrashish yoshligidayoq tuyassar bo'ldi va bu uni, o`ylashimcha, san'atdagi ko`pgina nosog`lom —o`yinlardan asrab qoldi. O'rta Osiyo adabiyotlarida realizmning etilishida Tolstoy asosiy omillardan biri edi. Men Tolstoyning ayrim yozuvchilar ijodiga bevosita ta'siri haqida gapirayotganim yo`q. Buning uchun Tolstoy o`ta buyuk va butun jahon adabiyotida noyobdir. Uning asarlaridagi ichki ritmnинг salmoqli nafasini, nafis garmoniyani uqmasang, hayotning benihoya murakkabliklarini his qilishga imkon beruvchi tasavvur kuchini chamalay olmasang, Anna va Katyushalar shaxsiy fojiasining chuqur ijtimoiy ruhini payqab olmasang, san'atkorning epik salohiyati, qudratli ijodiy shaxsi xuddi birdan yuz bergen tabiiy kuchlardek, daf'atan cho`chitib qo`yishi ham mumkin... Adabiyot hayotiy bo`lishi kerak, ammo u – hayotning o`zi emas. Chegarasi qaerda? Hozir bu savol jo`n tuyulishi mumkin, lekin bir va't u javob talab `ilar edi. Qadim Sharq adabiyotlari ta'sirida, ko`pincha qahramonlari yo faqat yovuzlik, yo faqat ezgulik ramzi bo`lgan didaktik ruhdagi asarlar ta'sirida o`sgan bizning ilk prozaiklarimizga Tolstoy o`zining butun ijodi bilan javob berar edi. Axloqni yod olib bo`lmaydi, uni aqlidrok vositasidagina singdirish mumkin emas, unga tajriba orkali, hayotning o`zi orqali erishiladi. Tolstoydagagi tabiiylik va samimiylilik hayratda qolarli darajada, xuddi hayotning o`zi so`zlayapti deysiz. Unda bevosita va haqqoniy hayot – fikrning yashash shaklidir. Bu – syujet doirasidagi hayot emas, —hayot voqeasi emas, balki hayotning mukammal butunligi, uning tabiiyligi, butun boyligi, buyukligi. Buyuk fikr manbai – oddiy hayotgina emas, san'atkorning azobli izlanishlarida kashf etilgan hayot.

Odamlar o`z hayotlari bilan fikr qiladilar, Chingiz Aytmatov aytganidek, —bog`bon o`z bog`i bilan fikr qiladi. Bunday hissiy tafakkur umuman yuksak san'atgagina xosdir. O'zbek prozasining ustasi Abdulla Qahhor Tolstoy haqidagi suhbatlarida ijodning ajoyib xususiyatlaridan biri – hamdardlik haqida ko`p gapirardi. Chindan ham, agar begona ehtiroslarni o`rtoqlashish, qahramon bilan hamdardlik kabi murakkab ish bo`lmasa, personajning qilgan ishlarini tasvir etish ancha oson bo`lar edi.

— Obrazga kirish – artistlarga kerak, – der edi Abdulla Qahhor, – lekin u aslida avvalo yozuvchilarga xos fazilatdir. Qahramon o`z taqdiriga ega bo`lib, o`z hayoti bilan yashay boshlaganidagina undan qutulasan. Abdulla aka biror personajning —Qahhor bo`lgisi kelmayotganini, muallif yuragining bir parchasiga aylanguncha ko`p qarshilik kùrsatganini hikoya qilar edi. —O`zimniki bo`lib qolgandan keyin esa, o`z ishini o`zi bilib qiladi; unga endi undoq qil, mundoq qil, deb buyurib bo`lmaydi; muallif izni bilan ish qiladigan kahramon kitobxonga ham yoqmaydi-

da, der edi. Abdulla Qahhor bu xususiyatni —Urush va tinchlikdagi yuzlab qahramonlar obraziga kirib, hamdard bo`lolan Tolstoyning san'atkorlik dahosi bilan bog`lar edi. Bizning —Tolstoy atrofidagi bu suhbatlarimiz ko`pincha uzoq bahsga aylanardi. Qahhor bu masalalarga juda ham amaliy yondashar, shundanmi, goho munozara qilishga to`g`ri kelardi. Ammo umumiylar xulosalarimiz esda qolar edi: epik asarda davr murakkabliklarining o`zi ham xarakterlarni shakllantiradi, toblaydi. Muallif tarix chigilliklaridan qahramon ixtiyoriga bog`liq bo`lmagan hodisalarini sinchiklab tanlarkan, shu jarayonda voqealar bo`ronini sal bosib, butun e'tiborni shaxsning tahiliga ko`chiradi. Tarixiy shaxslarga, tarixiy voqealarga baho berish va umuman yozuvchining dunyoqarashi asarga ilova qilinmaydi, balki obrazlar ustida ishslash jarayonining o`zida yuzaga chiqadi. Shuning uchun Tolstoy romanlarida assosiy narsalarning hammasi rejalardan emas, san'atkorning ilhombaxsh tahilidan kelib chiqadi, bu esa sxematizmni urug`idanoq quritib tashlaydi. Abdulla Qahhor Tolstoyni maxsus, —Tolstoyscha yozishga urinish uchun emas, balki katta bir insoniy qiziqish bilan, san'atkorona yaxshi bir hasad bilan o`rganar edi. Shuning uchun, u ko`p ishlarini bir necha yilga yig`ishtirib qo`yib, —Urush va tinchlikni tarjima qilishdek benihoya murakkab ishga qo`l urganida hech qaysimiz ajablanmadik. Abdulla Qahhor tarjimalari biz uchun Tolstoyni ikkinchi marta kashf etishdek bo`ldi. Ular milliy tilimiz imkoniyatlarini go`yo birdan kengaytirib yubordi, Tolstoy qahramonlarining murakkab dunyosi butun nafisligi va ulug`vorligi bilan birinchi marta ona tilimizda namoyon bo`ldi. O`zbek tilida Tolstoyning uslub xususiyatlarinigina emas, buyuk mo`jizakorning chuqur ziddiyatli, mehribon va mardona ruhiy dunyosini ham ifodalash mumkin ekan. Albatta, Tolstoyning mashhur —davriy jumلالари tarjimonga oson ko`chmagan, lekin O`ahhor ularga ham zo`rliksiz, chuqur hurmat bilan munosabatda bo`lib, erkin va engil nafas bag`ishlagan. Tarjimada ham originaldagidek, mahorat da'vosi, hayratga solishga urinish yo`q, hamma narsa shunday tabiiyki, o`qiganda til materialini sezmaysiz, faqat tiniq fikrni, inson ichki dunyosini, katta ijtimoiy voqealarni, murakkab taqdir va xarakterlarni ko`rasiz. Tolstoy – buyuk xalqning qalbi va ovozi, ezgulik va mardlik timsoli. U bitmas-tuganmas xazina, hamma joyda hoziru nozir vijdon hakamidir. Bu – doimiy tashnalik, bir umr izlanish, ruhiy bezovtalik.

Qadimgi yunonlarning Gomer haqida aytgan gapini Tolstoysga ham qo`llash mumkin: u shunday saxovatli boylikki, qancha olishga qurbing etsa, shuncha beradi. Tolstoy asarlari – o`tmish merosigina emas, balki kelajak mulki ham ekanligi isbot qilingan. Darhaqiqat, bu asarlar hamma zamonlarda inson ruhining ulug`vorligini, shaxsning kamolotga intilishidagi benihoya kuchni tushunishga yordam beradi. Asqad Muxtor Tolstoy to`plagan aforizm yoxud yozuvchining aql xazinasi va ruhiy sabog`i xususida qo`limda siyohrang kalendar daftari. Unda yil yo`q, ammo oylar bor, lekin kunlar yozilmagan, sahifalariga barcha kunlarga monand bittadan, jami 365 ta hikmatli so`z bitilgan. Agar kunlari belgilab chiqilsa,

o`sha kunning hikmati ayon bo`ladi. Kishiga bir yillik hamroh va dastyor vazifasini o`tovchi ushbu kundalik daftarni ochganimizda —Yilning har kuniga donolar fikri. Lev Tolstoy to`plagan degan yozuvni ko`ramiz. —Lev Tolstoy to`plagan! Nahotki deysiz, XIX asr rus va jahon adabiyoti hamda tafakkurining ulug` siymosi yozuvchilik zahmatlaridanda ortib, aforizmlar yig`ish bilan ham shug`ullangan bo`lsa?! Shu asnoda dabdurustdan axir, buni kimsan Lev Tolstoyning o`zлari maxsus o`xshaydilar-ku, bejizga emasdir bu, degan fikr keladi va... unga rostakamiga qiziqib qolasiz. Adibning kitoblarini varaqlay boshlaymiz. Tolstoyning o`zbekchaga o`girilgan kitoblarida biz izlagan narsa uchramadi. Asl matndagi ko`ptomlik asarlar to`plamlari, shuningdek, 22 tomligi (1978 yildan èzuvchining 150 yilligiga atab chiqarila boshlagan)da ham yo`q edi. 1928-1958 yillarda chop etilgan 90 tomlik asarlar to`plamiga esa qo`limiz etgan emas. Nihoyat Tolstoy hayotining so`nggi yilida unga kotiblik qilgan Moskva Davlat universiteti bitiruvchi talabasi Valentin Bulgakovning kundaligi qo`limizga tushib qolgani bois izlagan narsamizni topdik. Kundalik 1960 yili Moskvada kitob bo`lib chiqqan, Yasnaya Polyanada 1910 yili bo`lgan voqealarni xolisona bayon qiladi. Ma'lum bo`ladiki, 82 yoshga kirganida ham ulug` yozuvchini ruhiyhayotiy kuch tark etmagan va u tinimsiz ijodiy faoliyat yuritgan. Valentin Bulgakovdan Lev Tolstoyning o`sha yillardagi eng sevimli mashg`uloti – hayotga qarashlarini ifodalovchi fikrlar to`plamini yaratish bo`lganligini bilib olamiz. Bu ishda Tolstoyma yaqindan yordam bergen Bulgakovga mansub kundalikning 38 joyida bizni qiziqtirgan mavzu tilga olinadi va ulardan bu borada savollarga javob topishimiz mumkin bo`ladi. Xullas, L. N. Tolstoyning —Har bir kunga. Hayot haqida chuqur ma'noli iboralar orqali ifodalangan ta'lilot deb nomlangan diniy-falsafiy asari mavjud bўlib, u muallifning ijod namunalaridan olingan yoki ushbu nashr uchun maxsus yozilgan hikmatlari, shuningdek, tur-li donishmandlarning hikmatli so`zlaridan tarkib topgan. —Har bir kunga to`plami ustida yozuvchi 1906 yildan 1910 yilgacha ishlaydi. 1909 yilda to`plam nashriyotda alohida kitobchalar holida chiqqa boshlaydi. Gazetalar to`plamdan ko`chirmalar berishadi. 1910 yilda L. Tolstoy to`plamni butunlay qayta ko`rib chiqadi, qo`shimcha va tuzatishlar kiritadi, yangi materiallar tanlaydi, kitobchalar korrekturasi ustida muntazam ishlaydi. Keling, Valentin Bulgakovning kundaligidagi ba'zi misollar bilan tanishaylik: «1910 yil 28 yanvar. U (Tolstoy) —Har bir kunga to`plami yanvar oyi sonini xalqqa tushunarliroq qilib qayta ishlangan o`n kunligi korrekturasiga kiritgan tuzatishlarimni qarab chiqdi, —ba'zilarini qabul qildi, ayrimlariga qo`shilmadi, ...gap orasida esa fikr yuritishda —o`z ustida ishlashga katta ahamiyat berishini aytdi, ya'ni inson o`z fikrlarini kuzatib borishi kerak, toki ichiqoralik qilish, boshqalarga yomonlik tilash va umuman, yaramas o`y-fikrlar noma'qul ekanligini o`zi anglab etsin va o`sha zahoti ularni to`xtatish hamda jilovlashga urinsin. —Faoliyatning haqiqiy yo`nalishida bu zo`r yordam beradi, — dedi Lev Nikolaevich. — Men buni amaliy qoida, aql uchun gigienik ko`rsatma tariqasida gapiryapman,

chunki buni juda ham muhim deb hisoblayman. —1910 yil 15 fevral. Lev Nikolaevich —Har bir kunga» to`plami va undagi fikrlardan tanlanib yana alohida kitobchalar chiqarilishi borasida gapirar ekan, bu ish unga katta quvonch bag`ishlashini, qiziqarli ekanligini, foydali va zarurligiga endi shubhalanmayotganligini aytди». —1910 yil 21 may. —Nimalar yozmoqdasiz, azizim Lev Nikolaevich!, — deb so`radi M. A. Shmidt. — Tasavvur qiling, hech narsa, Mariya Aleksandrovna! Va juda mammunman, — javob berdi Lev Nikolaevich. — Menda noshirlar uchun —Har bir kunga va —Hayot haqida o`ylar bor. Bu men qilishim shart bo`lgan ishdir, bu ishim odamlarga foydali bo`lar degan umid bilan o`zimni ovutaman. —1910 yil 3 avgust. Paskalni fransuzcha o`qib, uning yana bir fikri tarjimasini menga yozdirar ekan, dedi: —Paskal o`lganiga 200 yildan oshdi, ammo u bilan ruhan bir bo`lib yashamoqdaman, sirlilik bor-a? Menga yaqin bo`lgan mana bu fikri xayolimni ostin- ustun qildi, xuddi o`zimniki-ya! Paskal bilan ruhan birlashib ketayotganimni sezmokdaman. Paskal hayot, u o`lмаган, mana u. Xuddi Iso alayhissalomdek... Bilasanmi, buni ba'zan yaqqol tasavvur qilib turasan. Shu fikri orqali u faqat men bilan emas, uni o`qiydigan minglab kishilar bilan bog`lanadi. Bu — eng chuqur, eng tilsimli va mehr qo`zg`atuvchi narsa... Yuqoridagi ko`chirmalar Tolstoy tafakkur olamidan sizu bizga qarata ochilgan kichkinagina yorug` darichadek edi, nazarimda. Uzoq va sermazmun hayoti chuqur g`oyaviy izlanish va ruhiy iztirob po`rtanalariga to`la bo`lgan, cherkov aqidalarini rad etib, faqat yagona Xudoni tan olgan, inqilobiy harakatlarni yoqlamasdan yovuzlikka kuch bilan qarshilik ko`rsatmaslikni olg`a surgan, o`zidagi ikki qutb: —kurashchi isyonkor ruhi bilan sust murosa, bo`ysunish ta'limotini bir-biriga kelishtirolmagan ulug` Lev Tolstoy har bir inson va barcha odamlar hayoti-ni qanday qilib baxtli qilish y`llarini ko`rsatib berish haqida orzu qiladi. Uning fikricha, buning uchun faqat bir narsa zarur: u ham bo`lsa shuki, odamlar bir-birlarining oldida aybdor bo`lmasinlar, hayotda xudbin,adolatsiz tartibni yoqlamasinlar, o`zini emas, balki boshqalarni, barchani sevsinlar, his-tuyg`u, mayllarini aql bilan mahv etsinlar. 40 yoshida —Urush va tinchlik, 50 yoshida —Anna Karenina, 70 yoshida —Tirilish singari mashhur romanlarini yozib tugallagan Lev Tolstoy 80 yoshining nari-berisida o`zining, o`zigacha o`tgan va zamondosh ulug`larning fikrlarini inson hayotining har bir kuni uchun mo`ljallagan holda jamlab, —Har bir kunga — —Na kajdiy den (90 tomlik to`la asarlar to`plamining 44-tomiga kiritilgan) nomi bilan alohida kitobchalar holida nashr ettira boshlagan. Ularda o`tadigan har bir kun uchun o`nlab hikmatlar bor. Ana endi bizga ma'lum bo`ladiki, ulug` yozuvchi maqsadi shunchaki aforizmlar yig`ish emas, balki uning o`z so`zi bilan aytganda —xalqni axloqiy qayta tiriltirish va shu orqali —inson tabiatida inqilob yasash edi. Abdulla Xolmirzayev L.N.Tolstoy ijodi haqidagi fikrlar —Tolstoy boboning asarlari qaziga o`xshaydi, chaynagan saring mazasi chiqaveradi. Abdulla Qahhor —L.N.Tolstoy yuksak bir geniy, mislsiz bir talant. Uning chuqur falsafali asarlarining har biri badiiy bir

haykaldir. Bu ulug` adibning kundalik daftarlariga qadar maroq bilan ko`p daf'a o`qiganman. Har o`qiganimda L.Tolstoy dahosining yangi bir qirrasini, yangi bir rangi, bir ziyosini ko`ryapman. Oybek —Pushkin, Lermontov, L.Tolstoy, Chexov va boshqalarning asarlari o`zbek prozasi uchun namuna maktabini o`tadi. Hamid Olimjon —Men o`ylaymanki, Tolstoy hech qachon qarimaydi. Tili eskiradi-yu, ammo o`zi yoshligicha qolaveradi. A.P.Chexov —Lev Tolstoy – har bir yozuvchi uchun akademiyadir. A.N.Tolstoy —Uning asarlari tarasha yoki poyrahaning o`tiga o`xshab lovullab yonib, bir zumda o`chmaydi, balki saksovulning cho`g`iga o`xshab tutab, sust yonadi, lekin harorati zo`r bo`ladi, ancha fursat o`chmay turadi. Abdulla Qahhor —Jahon adabiyoti tarixida fransuz yozuvchisi Balzak, rus yozuvchisi Lev Tolstoy singari ko`p yozgan adib yo`q. O`z asarlarining ko`pligi jihatidan bu ikki ijod va fikr gigantiga teng bo`ladigan yozuvchi topilmaydi. Ular proza azamatlaridir. Hamid Olimjon —ha, Tolstoy haqiqatan ham juda katta san'atkor. Bunday san'atkorlar asrlar davomida tug`iladi va uning ijodiyoti g`oyat top-toza, yorug` va ajoyibdir. V.G.Korolenko Buyuk yozuvchi Lev Nikolaevich Tolstoy tavalludining 196 yilligi munosabati bilan kutubxonalar, AKM va ARMiarda o`tkazilishi mumkin bo`lgan tadbirlarning metodik ishlanmasi Og`zaki jurnal Lev Nikolaevich Tolstoyning 196 yilligi munosabati bilan kutubxonalar, AKM va ARMiarda og`zaki jurnal o`tkazish mumkin. Kutubxonalarda o`tkaziladigan barcha ommaviy tadbirlarni o`tkazish jarayonida bo`lgani kabi, og`zaki jurnal tashkilotchilari tashkil qilgan tadbir o`tkaziladigan joyni jihozlaydi, mutaxassislarni taklif qiladi, jurnal sahifalarida so`zga chiquvchi mutaxassis va kitobxonlarni taklif etadi, kutubxonalarda e'lon yoziladi va taklifnomalar kerakli tashkilotlarga yuboriladi. Og`zaki jurnalni boshqaruvchi, ya'ni muharrir ochadi. Odatda muharrir har bir sahifani ochishdan avval qisqacha kirish so`zi so`zlaydi, so`ng navbatni so`zga chiquvchiga beradi. Jurnalning sahifalari suhbat, axborot, olimlar, mutaxassislar, mashhur kishilarning chiqishlari, musiqa asarlari, yozuvchi badiiy asarlaridan parchalar – sahna ko`rinishi tariqasida namoyish etilishi mumkin. Og`zaki jurnalni muharrir kirish so`zi bilan ochadi.

1-sahifa: “L.N.Tolstoy oilasi”.

2-sahifa: “L.N.Tolstoyning ilk ijodi va urush mavzuidagi asarlari”.

3-sahifa: “L.N.Tolstoy – dramaturg”.

4-sahifa: “L.N.Tolstoy – xalq muallimi”.

5-sahifa: “L.N.Tolstoy asarlarining o`zbekcha tarjimalari”.

1-sahifa “L.N.Tolstoy oilasi” Ushbu sahifada L.N.Tolstoyning oilasi haqidagi ma'lumotlar yoritiladi.

2-sahifa “L.N.Tolstoyning ilk ijodi va urush mavzusidagi asarlari” Sahifada Tolstoyning ilk ijod namunalari va urush mavzusiga bag`ishlangan asarlari,

—Sevastopol hikoyalari, —Urush va tinchlik romani va boshqalar haqida ma'lumotlar beriladi. Bo'limda —Urush va tinchlik romanidan parcha o'qiladi. 3-sahifa "L.N.Tolstoy – dramaturg" Bu sahifada yozuvchining dramaturgiya sohasida qilgan ishlari —Zulmat hukmronligi, —Ma'rifat mevalari, —Tirik murda kabi asarlari haqida so`z boradi.

4-sahifa "L.N.Tolstoy – xalq muallimi" Sahifada Tolstoyning yashab turgan tuzumining jirkanch illatlarini fosh etish va xalq hayoti bilan yaqinlashishi, Yasnaya Polyanada dehqon bolalari uchun ochgan maktabi, —Yasnaya Polyana nomli pedagogik jurnal nashr qilgani hamda —Alifbe, —Yangi alifbe kabi darsliklar yozgani haqida ma'lumotlar beriladi. 5-sahifa "L.N.Tolstoy asarlarining o'zbekcha tarjimalari" Oxirgi sahifada esa Tolstoy asarlarining o'zbek tiliga birinchi tarjimasi, qachon va kim tomonidan qilingani, umuman alohida buyuk è youvchi asarlari tarjimasi bilan shug` ullangan adiblar mehnati, Tolstoy asarlarining o'zbek kitobxonlariga etib kelishi haqidagi ma'lumotlar beriladi. Lev Nikolaevich Tolstoy hayoti va ijodiga bag`ishlangan "Buyuk so`z ustasi" nomli kitob ko`rgazmasini tashkil etishga tavsiyalar Ko`rgazmaning maqsadi – yozuvchining hyot yo`lini yoritib berish, kitobxonni uning asarlari, u haqidagi nashrlar bilan tanishtirishdir. Bunda biografik ocherklar, xotiralar, asarlar to`plamlari, yozuvchi ijodi to`g`risidagi tanqidiy asarlar qo`yiladi. Hujjatlar, fotorasmlar, portretlardan foydalanan muhim ahamiyatga ega. Ko`rgazmadagi adabiyolarni joylashtirishda ularning mantiqiy xususiyati hisobga olinadi. Adabiyotlar mavzuni yoritib bera olish darajasida joylashtirilishi kerak. Kitobxon diqqatini tezda jalb etadigan element ko`rgazmaning sarlavhasidir. Sarlavha sodda, qisqa, kitobxon qabul qilishi uchun oson bo`lishi kerak. Ko`rgazma mavzusiga mos tanlangan ko`chirma, qisqa matn va turli illyustrasiyalar ko`rgazmaning ta'sirchanligini oshiradi. Ko`rgazma nomiga va alohida har bir bo`lim uchun ko`chirma tanlanadi. Kitob ko`rgazmasi 3–4 bo`limdan iborat bo`lishi mumkin

- . 1. "Ulug` rus yozuvchisi – L.N.Tolstoy" Bu bo`limga L.N.Tolstoy hayoti va ijodi aks etgan adabiyotlarni joylashtirish maqsadga muvofiqdir.
2. "Urush va tinchlik" epopeyasi Bu bo`limga L.N.Tolstoyning eng yirik asari —Urush va tinchlik romani va romanni yozish jarayoni haqida vaqtli matbuot sahifalarida e'lon qilingan maqolalarni joylashtirish o`rinlidir.
3. "L.N.Tolstoy – O'zbekistonda" Bu bo`limga L.N.Tolstoy asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan adiblarimizning Tolstoy va uning asarlari haqidagi fikrlarini aks ettirgan manbalar joylashtiriladi.
4. "L.N.Tolstoy – zamondoshlar xotirasida" Bo`limga L.N.Tolstoy zamondoshlari tomonidan bitilgan Tolstoy va uning ijodiga bag`ishlangan rus va xorij yozuvchilarining asarlari, vaqtli matbuot sahifalaridagi chiqishlari aks ettirilgan materiallar joylashtiriladi. "Lev Nikolaevich Tolstoy – proza azamati" mavzuida

davra suhbatini tayyorlash bo`yicha tavsiyalar Kutubxonalar, AKM va ARMiarda ushbu tadbirni o`tkazish uchun tayyorgarlik ishlari 1 oy avval boshlanadi. Mehmonlar, ishtirokchilarga taklifnomalar yuboriladi. Davra suhbat o`tkaziladigan joyda mavzuga oid adabiyotlar ko`rgazmasi tashkil qilinadi. Davra suhbat doirasida quyidagi mavzular bo`yicha chiqish qilish mumkin: - Yasnaya Polyanadagi uchrashuvlar; - Tolstoy – portretlarda, illyustrasiya va hujjatlarda; - Lev Tolstoy asarlari O`zbekistonda; - Lev Tolstoyning mahorati; - Tolstoy ijodi muammolari. Davra suhbatini boshlovchi ochadi. So`ng mehmonlar tanishtiriladi va so`z navbatli ularga beriladi. Mehmonning ma'ruzasidan so`ng davra suhbat qatnashchilarining savollari berilishi mumkin. Shu tarzda barcha taklif etilgan mutaxassislar tinglanadi. Davra suhbatida foydalanish mumkin bo`lgan taxminiy savollar: - Tolstoy asarlarining jahonshumul ahamiyati nimada? - Tolstoy o`zining ilk ijodiga —barinning ermag'i deb qarashining sababi nimada? - Tolstoyning Rossiya hayoti —ag`dar-to`ntar davrida —Anna Karenina asaridagi oila masalalarini yoritishdagi muvaffaqiyatlari nimada? - Tolstoy boy madaniy merosini o`rganishning ahamiyati nimada? - Tolstoy ruhiyatidagi ziddiyatlar haqida nimalarni bilasiz?

“L.N.Tolstoy adabiy merosini bilasizmi?” bilimdonlar bellashuvi

1. L.N.Tolstoyning qaysi asari avtobiografik asar hisoblanadi? (“Bolalik. O`smirlilik. Yoshlik” trilogiyasi. “Yigitlik” asari – tugallanmay qolgan)
2. —Bolalik. O`smirlilik. Yoshlik trilogiyasidagi bosh qahramon Nikolenko Irtenevning prototipi kim? (Lev Nikolaevich Tolstoy)
3. —Bolalik qissasi bilan adabiy faoliyatini boshlaganida L.Tolstoy necha yoshda edi? (24 yoshda)
4. Yozuvchining ilk ijod namunalari qaysi jurnalda chop etilgan? (Nekrasovning “Sovremennik” jurnalida)
5. —Urushning asl qiyofasini – vayrona, azob va o`limning qonli manzarasini tasvirlab berdi.

Bu so`zlar qaysi asar haqida aytildi? (“Sevastopol hikoyalari” haқida)

6. —Ortiqcha gapirgandan kùra, aytib bitirmagan yaxshiroq – kimning so`zleri? (L.N.Tolstoy)
7. Lev Nikolaevich Tolstoy asarlari asosida qanday filmlar yaratilgan? (“Urush va tinchlik”, “Anna Karenina”, “Voskresene”, “Bolalik” va boshqalar)
8. Yozuvchining —Anna Karenina, —Urush va tinchlik, —Tirilish va boshqa asarlarini o`zbek kitobxonlariga ona tilimizda havola qilgan adiblarimizni bilasizmi? (“Tirilish” romanining birinchi tarjimoni Mirzakalon Ismoiliy, keyin esa Xolida Axrorova tarjima qildi, “Anna Karenina” romanini Mirzakalon Ismoiliy,

“Urush va tinchlik” romanining birinchi qismini Abdulla Qahhor, ikkinchi qismini Kibriyo Qahhorova bilan hamkorlikda, epopeyaning oxirgi qismlarini esa, Kibriyo Qahhorova o`zi tarjima qilgan)

9. Rus klassiklari Lev Tolstoy, Mixail Yurevich Lermontov, Aleksandr Sergeevich Pushkinding nomlanishi bir xil bùlgan asarlari nomini ayting? (“Kavkaz asiri”)

10. L.N.Tolstoyning 3 ta asosiy pesasini ayting? (“Tirik murda”, “Zulmat hokimiyati”, “Ma'rifat mevalari”).

11. Knyaz Andrey Bolkonskiy qaysi asarning bosh qahramoni? (“Urush va tinchlik”)

12. Tolstoyning qaysi asari 12 marta tahrir qilingan? (“Anna Karenina” romani)

13. Tolstoyning —Urush va tinchlik romanidagi eng sevimli qahramonlarni bilasizmi? (Natasha Rostova, Per Bezuxov)

14. —Tolstoy shudgorda kartinasining muallifi kim? (1887 yil, I.E.Repin)

15. Tolstoyning qaysi asarlari teatrlarimiz sahnalarida sahnalashtirilgan? (“Tirik murda”, “Zulmat hokimiyati”)

## MUNDARIJA

1.Kirish

2.Bolaligi.

3.Goncharov va boshqalar bilan hamkorlik.

4.Xojaevga javob xat.

5.Bog`bon va bog`.

6. “L.N.Tolstoy adabiy merosini bilasizmi?”